“ZAAMIN ULTRA” 2026 o‘tkaziladigan sana: . 2026-yil 13-14-iyun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma yoki “Tashkilotchi” deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslarga taqdim etilgan ommaviy oferta shartnomasi bo‘lib, unda mazkur shartnoma predmeti hisoblangan xizmatlarni ko‘rsatishga oid barcha muhim shartlar aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi talablariga ko‘ra, quyida keltirilgan shartlarni qabul qilgan va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirgan jismoniy shaxs ushbu ofertani akseptlagan hisoblanadi hamda “ZAAMIN ULTRA” 2026 yugurish tadbirining ishtirokchisiga aylanadi (bundan keyin – “ZAAMIN ULTRA” 2026 ishtirokchisi). Fuqarolik kodeksining 370-372-moddalariga muvofiq, ofertani akseptlash ofertada bayon etilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga tengdir. Shu tariqa, “ZAAMIN ULTRA” 2026 tashkilotchisi va ishtirokchisi birgalikda ushbu ommaviy oferta shartnomasining taraflari sifatida e’tirof etiladi.

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib, ushbu ommaviy shartnoma-oferta matnini diqqat bilan o‘qib chiqishingizni so‘raymiz. Agar mazkur shartnomaning biror bandiga rozi bo‘lmasangiz, tashkilotchi sizga xizmatlardan foydalanishni rad etish huquqini taqdim etadi.

1. OFERTA SHARTNOMASINING PREDMETI

1.1. Ushbu oferta shartnomasining predmeti – Jamg‘arma tomonidan tashkil etiladigan “ZAAMIN ULTRA” 2026 xalqaro xayriya yugurish tadbirida ishtirok etishni istagan shaxsga tadbirni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, bu xizmatlar elektron ro‘yxatdan o‘tish xizmatini ham, lekin faqat ular bilan cheklanmagan holda o‘z ichiga oladi.

1.2. Tomonlar shuni tan oladilarki, Tashkilotchi ob-havo yoki boshqa sharoitlar bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra Tadbir o‘tkaziladigan joyni istalgan vaqtda o‘zgartirish huquqiga ega, bunda masofa parametrlari va tadbirning umumiy formati saqlab qolinadi. Shuningdek, Tadbir nomini ham o‘zgartirish huquqiga ega.

1.3. Tadbirni o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- quyidagi masofalarga elektron ro‘yxatdan o‘tish xizmatlari:
  - 50 km;
  - 21 km;
  - 10 km;
  - 5 km;
  - 2 km;
  - KIDS RUN 1000 – 1000 m;
  - KIDS RUN 600 – 600 m;
  - KIDS RUN 300 – 300 m;
  - KIDS RUN 60 – 60 m;
- Tadbirni o‘tkazish xizmatlari.

1.4. Ushbu shartnoma doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati uchun javobgarlik Tadbir Tashkilotchisiga yuklatiladi.

2. SHARTNOMANI TUZISH VAQTI

2.1. Ushbu shartnomaning matni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.

2.2. Ofertani aksept qilish – bu ishtirokchining Tadbir shartlarining barchasini hech qanday istisno va/yoki cheklovlarsiz to‘liq va so‘zsiz qabul qilganini anglatadi hamda yozma ravishda tuzilgan shartnoma kuchiga ega hisoblanadi.

2.3. Ofertani aksept qilish uchun Tadbir ishtirokchisi quyidagi harakatlarni ketma-ket amalga oshiradi:

2.3.1. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi matni, Tadbir o‘tkazish reglamenti hamda events.samarkandmarathon.uz, reg.russiarunning.com, worldsmarathons.com, finishers.com, ahotu.com rasmiy saytida joylashtirilgan boshqa axborotlar bilan tanishadi.

2.3.2. Tanlangan masofaga elektron ro‘yxatdan o‘tadi va events.samarkandmarathon.uz, reg.russiarunning.com, worldsmarathons.com, finishers.com, ahotu.com saytida ro‘yxatga olish badalini to‘laydi.

2.4. Tadbir ishtirokchisi tomonidan ro‘yxatga olish badali to‘langanligi ushbu oferta shartlarini to‘liq va so‘zsiz qabul qilganligini (aksept) anglatadi va bu yozma ravishda tuzilgan shartnoma bilan tenglashtiriladi.

2.5. Ushbu shartnoma Tadbir tashkilotchisi va ishtirokchi o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarda asosiy hujjat hisoblanadi. Ishtirokchi ushbu shartnomaning barcha shartlari unga tushunarli ekanini tasdiqlaydi va ularni to‘liq va so‘zsiz qabul qiladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Tadbir ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Quyidagi masofalar bo‘yicha elektron ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega:

- 50 km – 18 yoshdan katta ishtirokchilar;
- 21 km – 18 yoshdan katta ishtirokchilar;
- 10 km – 16 yoshdan katta ishtirokchilar;
- 5 km – 14 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;
- 2 km – 12 yoshdan katta ishtirokchilar;
- KIDS RUN 1000 – 9-11 yoshdagi bolalar;
- KIDS RUN 600 – 7-8 yoshdagi bolalar;
- KIDS RUN 300 – 5-6 yoshdagi bolalar;
- KIDS RUN 60 – 3-4 yoshdagi bolalar.

3.2. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Tadbir ishtirokchisidan ushbu ommaviy oferta shartnomasida va Tadbir reglamentida ko‘rsatilgan barcha qoidalarga rioya qilishni talab qilish.

3.2.2. Ishtirokchining ro‘yxatdan o‘tishi va ro‘yxatga olish badalini to‘lashi chog‘ida ushbu shartnoma shartlariga to‘liq roziligini talab qilish.

Agar ishtirokchi shartnoma shartlariga rozilik bildirmasa, Tashkilotchi uni Tadbirda ishtirok etish uchun ro‘yxatga olishdan bosh tortish huquqiga ega.

3.2.3. Hech qanday tovon to‘lamagan holda va javobgarlik yuklamagan holda Tadbir ishtirokchisining ishtirokida olingan foto, audio va/yoki video materiallardan reklama, promo va boshqa bosma nashrlar, radio, televideniye, internet hamda boshqa manbalarda, joy va muddat jihatdan hech qanday cheklovlarsiz foydalanish, ularni tahrirlash va uchinchi shaxslarga topshirish huquqiga ega.

3.2.4. Quyida keltirilgan hollarda Tadbir ishtirokchisini diskvalifikatsiya qilish.

- ishtirokchi rasmiy start vaqtigacha yoki start yopilganidan keyin yugurishni boshlagan bo‘lsa;
- ishtirokchi harakatlanish uchun mexanik vositalardan foydalangan bo‘lsa;
- Tadbir davomida nosportga xos xatti-harakatlar sodir etgan bo‘lsa.
- Ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qaror Tadbir Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan qabul qilinadi.

3.3. Tadbir ishtirokchisi majbur:

Tadbirda ishtirok etish uchun ushbu shartnoma shartlariga rozilik bildirish. Agar ishtirokchi shartnoma shartlariga rozi bo‘lmasa, u Tadbir ishtirokchisi sifatida ro‘yxatga olinmaydi. Agar ro‘yxatga olish badali to‘langan bo‘lsa, bu ishtirokchining ushbu shartnoma shartlariga to‘liq roziligini bildiradi.

3.3.1. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi, Tadbir Reglamenti bilan events.samarkandmarathon.uz, reg.russiarunning.com, worldsmarathons.com, finishers.com, ahotu.com rasmiy sayti orqali batafsil tanishish va ularga rioya qilish.

3.3.2. Agar mazkur hujjatlar rasmiy sayt orqali mustaqil ravishda topilmagan yoki mavjud emas deb hisoblangan taqdirda, Tashkilotchiga murojaat qilish va faqat ushbu hujjatlar bilan tanishganidan so‘nggina ro‘yxatdan o‘tishni amalga oshirish.

Tashkilotchi, ishtirokchining ushbu hujjatlardagi matn mazmunini noto‘g‘ri talqin qilishi oqibatida yuzaga kelgan xatti-harakatlari uchun javobgar emas.

3.3.3. Tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan to‘lov usullari orqali ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘liq hajmda to‘lash.

3.4. Tashkilotchi majbur:

3.4.1. Tadbir ishtirokchisiga, ushbu shartnoma shartlariga qat’iy rioya etgan holda, tanlangan masofaga elektron ro‘yxatdan o‘tish imkoniyatini taqdim etish.

3.4.2. Ishtirokchi ushbu shartnoma shartlariga rozilik bildirganidan so‘ng, ro‘yxatga olish badalini qabul qilish.

4. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

4.1. Tadbir ishtirokchisi ro‘yxatdan o‘tish badali va qayta ro‘yxatdan o‘tish xizmati uchun to‘lovni Visa International, MasterCard, Uzcard, Humo to‘lov tizimlari orqali amalga oshiradi.

4.2. Ro‘yxatga olish badali qiymati O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so‘mda belgilanadi.

4.3. Ro‘yxatdan o‘tish badali miqdori, rasmiy ro‘yxatdan o‘tish boshlangan sanadan boshlab 2026-yil 5-iyunga qadar quyidagicha belgilanadi:

- 50 km – 350 000 (uch yuz ellik ming) so‘m;
- 21 km – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
- 10 km – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
- 5 km – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;
- 2 km – 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;
- KIDS RUN 1000 – 150 000 (bir yuz ellik ming) so‘m;
- KIDS RUN 600 – 150 000 (bir yuz ellik ming) so‘m;
- KIDS RUN 300 – 150 000 (bir yuz ellik ming) so‘m;
- KIDS RUN 60 – 150 000 (bir yuz ellik ming) so‘m.

4.4. Masofani o‘zgartirish faqatgina 2026-yil 29-may qadar amalga oshirilishi mumkin.

Masofani o‘zgartirish xizmati uchun to‘lov – 50 000 (ellik ming) so‘m.

Agar ishtirokchi masofani kichikdan kattaroqqa o‘zgartirsa, u holda slotlar narxi o‘rtasidagi farqni to‘lashi shart.

Agar masofa kattadan kichik masofaga o‘zgartirilsa, slotlar narxidagi farq qaytarilmaydi.

Masofani o‘zgartirish faqatgina quyidagi shartlar bajarilganda amalga oshiriladi:

- ishtirokchining yoshi tanlangan masofa bo‘yicha belgilangan yosh talablarga mos bo‘lishi;
- tanlangan masofada bo‘sh slotlar mavjud bo‘lishi.

Masofa o‘zgartirilganda ilgari berilgan start raqami bekor qilinadi va ishtirokchiga tanlangan yangi masofa bo‘yicha yangi raqam biriktiriladi.

Masofani o‘zgartirish uchun ishtirokchi quyidagi manzillarga yozma ravishda murojaat qilishi lozim: t.me/samarkandmarathon_support.

Elektron pochta: marathon@acdf.uz.

Murojaatlar navbat asosida ko‘rib chiqiladi va qayta ishlanishi 3 kungacha vaqt olishi mumkin.

5. ELEKTRON RO‘YXATDAN O‘TISH BO‘YICHA ALOHIDA QOIDALAR

5.1. Tadbirda ishtirokchi sifatida elektron ro‘yxatdan o‘tishda, ishtirokchi o‘zi haqidagi to‘liq ma’lumotni taqdim etishga, ro‘yxatdan o‘tish veb-shaklidagi barcha majburiy maydonlarni to‘ldirishga majbur.

Agar ishtirokchi bu kabi ma’lumotlarni taqdim etmasa yoki yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumot kiritgan bo‘lsa, Tashkilotchi ishtirokchini elektron ro‘yxatga olishdan bosh tortish huquqiga ega.

5.2. Tadbir ishtirokchisi yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etganligi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olganini qabul qiladi va bunga rozi bo‘ladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, ushbu shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

6.2. Tashkilotchi, ishtirokchi tomonidan tashkilotchi tomonidan belgilangan talab va qoidalarning bilmasligi yoki ularga rioya qilmasligi oqibatida yuzaga keladigan holatlar uchun javobgar emas.

6.3. Tashkilotchi, ishtirokchi tomonidan ushbu shartnoma yoki Tadbir reglamenti shartlarini noto‘g‘ri tushunishi yoki umuman tushunmasligi natijasida yuzaga kelgan har qanday zarar yoki ma’naviy yo‘qotishlar uchun javobgar emas.

6.4. Tashkilotchi, Tadbir vaqtida ishtirokchining sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan shikast yoki zararning faqat beparvolik yoki xizmat majburiyatlarini qasddan buzish natijasida yuzaga kelgan holatlar uchun javobgardir

6.5. Tashkilotchi, ishtirokchining yoki uning mol-mulkiga boshqa tashqi (bevosita bog‘liq bo‘lmagan) sabablarga ko‘ra yetkazilgan zarar yoki yo‘qotishlar uchun javobgar emas.

6.6. Tashkilotchi voyaga yetmagan ishtirokchilar uchun javobgar emas. Bunday ishtirokchilar uchun to‘liq javobgarlik ularning ota-onalari yoki qonuniy vasiylariga yuklatiladi.

6.7. Tadbirda ishtirok etish orqali ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlaydi: u tegishli jismoniy holatda, muntazam ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tadi va sog‘lig‘i bilan bog‘liq jihatdan Tadbirda ishtirok etishga monelik qiluvchi yoki xavf tug‘diruvchi har qanday tibbiy yoki boshqa

cheklovlarga ega emas. Shu jumladan, uzoq muddatli jismoniy yuklamalarga qarshi ko‘rsatmalar mavjud emas va sog‘lig‘i Tadbirda ishtirok etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishtirokchi ushbu shart buzilishiga bog‘liq barcha xavf va salbiy oqibatlarni o‘z zimmasiga oladi.

6.8. Ishtirokchi Tadbir o‘tkazilayotgan hududda amal qilayotgan karantin cheklovlariga (agar mavjud bo‘lsa) rioya qilish uchun shaxsan javobgardir. Agar Tadbirda ishtirok etish ushbu karantin talablariga zid bo‘lsa, ishtirokchi mustaqil ravishda Tadbirda ishtirok etishdan bosh tortishi lozim.

7. YENGIB BO‘LMAS KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Tomonlar, ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun, agar bunday bajarmaslik yengib bo‘lmas kuch (fors-major) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

7.2. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitlari, harbiy harakatlar, pandemiya va epidemiyalar, umumdavlat inqirozi, tarmoq yoki mintaqaviy miqyosdagi ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlarining harakatlari va qarorlari, telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturiy ta’minotlarning ta’siri, shuningdek, har ikki Tomonning dasturiy va/yoki apparat tizimlariga (jumladan to‘lov tizimlariga) ruxsatsiz kirish yoki ularni ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noxolis harakatlari.

8. MAXFIYLIK SIYOSATI

8.1. Saytda ma’lumot qoldirayotgan Tadbir ishtirokchisi Maxfiylik va axborotni himoya qilish siyosatiga rozilik bildirgan hisoblanadi.

8.2. Events.samarkandmarathon.uz Tadbir sayti ma’muriyati, foydalanuvchi faoliyat yuritayotgan mamlakat qonunchiligida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno, Tadbir ishtirokchisi ro‘yxatdan o‘tish va sayt funksiyalaridan foydalanish paytida taqdim etgan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga berishi yoki oshkor qilishi mumkin emas.

8.3. Saytda muloqot qilish uchun Tadbir ishtirokchisi ba’zi shaxsiy ma’lumotlarni kiritishi shart. Taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish maqsadida, sayt onlayn yoki oflayn tarzda shaxsni tasdiqlovchi dalillarni talab qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

8.4. Tadbir ishtirokchisi ma’lumotlarni kiritgandan so‘ng, uning muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tganligi haqida tasdiqlovchi xabar oladi. Tadbir ishtirokchisi istalgan paytda Saytdagi tegishli xizmatdan foydalanib, axborot byulletenlarini olishni to‘xtatish huquqiga ega.

8.5. Saytda boshqa saytlarga havolalar mavjud bo‘lishi mumkin. Sayt mazkur saytlarning mazmuni, sifati va xavfsizlik siyosati uchun javobgar emas. Ushbu maxfiylik bayonoti faqat bevosita saytda joylashtirilgan ma’lumotlarga taalluqlidir.

8.6. Sayt Foydalanuvchi hisobini ruxsatsiz kirishdan himoya qilishni ta’minlaydi.

8.7. Sayt Maxfiylik siyosatiga qo‘shimcha xabardor qilmasdan o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Yangiliklar e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Tadbir ishtirokchilari Maxfiylik siyosatidagi o‘zgarishlarni mustaqil ravishda kuzatib borishi mumkin.

9. SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

9.1. Ushbu shartnoma Tadbir ishtirokchisi ro‘yxatdan o‘tgani va ro‘yxatdan o‘tish badalini to‘lagani paytdan boshlab kuchga kiradi.

9.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha xizmat, ishtirokchi Tadbirda qatnashishini tasdiqlovchi xatni yoki xabarni events.samarkandmarathon.uz veb-saytidagi shaxsiy kabinetida olgan paytdan boshlab ko‘rsatilgan hisoblanadi.

9.3. Tashkilotchi Tadbir ishtirokchilarini oldindan xabardor qilmay turib, ushbu shartnoma shartlarini o‘zgartirish huquqiga ega.

9.4. Agar ushbu Shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlarning kuchga kirish vaqti alohida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ular events.samarkandmarathon.uz saytida e’lon qilingan paytdan boshlab amal qila boshlaydi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH

10.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha Tomonlarning majburiyatlarini bajarishda yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan, da’vo tartibida hal etiladi. Ularni bartaraf etish imkoni bo‘lmagan taqdirda, Tomonlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun tashkilotchi joylashgan hududdagi sudga murojaat qilish huquqiga ega.

10.2. Qo‘llaniladigan huquq - O‘zbekiston Respublikasi huquqidir.

11. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Madaniyat va san’atni rivojlantirish
jamg‘armasi
Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani,
T. Shevchenko ko‘chasi, 1 uy,
tel: 71 207-40-80
STIR: 305 122 818, IFTUT (ОКЭД): 84120
sh/h: 30661086026273708930001 5001
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik
xizmati qo‘mitasi
h/r: 2340 2000 3001 0000 1010
Markaziy bankning Toshkent sh. HKKM
TA (МФО): 00014, STIR: 201 122 919
Telefon: +99899 363 22 36
Elektron pochta: marathon@acdf.uz